



TIBBIYOTDA QO'LLANILISHIGA DOIR YO'RIQNOMA BAKTOPIK

Preparatning savdo nomi: Baktopik

Ta'sir etuvchi modda (XPN): mupirotsin

Dori shakli: surtma 2%

Tarkibi:

Har bir gramm surtma quyidagilarni saqlaydi:

faol modda: mupirotsin 20 mg;

yordamchi moddalar: polietilenglikol 3350 va polietilenglikol 400.

Ta'rifi: oq yoki deyarli oq rangli surtma.

Farmakoterapevtik guruhi: Dermatologiyada qo'llaniladigan preparatlar. Dermatologiyada qo'llaniladigan antibiotiklar va mikroblarga qarshi preparatlar. Sirtga qo'llash uchun antibiotiklar. Sirtga qo'llash uchun boshqa antibiotiklar. Mupirotsin

ATX kodi: D06AX09

Farmakologik xususiyatlari

Farmakodinamikasi

Ta'sir mexanizmi

Mupirotsin – *Pseudomonas fluorescens* fermentatsiyasi orqali olingan yangi antibiotik hisoblanadi. Mupirotsin izoleysiltrans-RNK-sintetazani susaytiradi, bu orqali bakterial oqsillar sintezini to'xtatadi. Mupirotsin minimal susaytiruvchi konsentratsiyalarda bakteriostatik xossalarga va maxalliy qo'llanganda erishiladigan yuqoriroq konsentratsiyalarda bakteritsid xususiyatlarga ega bo'ladi.

Rezistentlik mexanizmi

Stafilokokklardagi rezistentlikning past darajasi aynan izoleysil-tRNK-sintetaza fermenti uchun oddiy stafilokokk xromosom geni (ileS)ning ichida nuqtali mutatsiyalar bilan bog'liq deb hisoblanadi. Stafilokokklarda yuqori darajalarga rezistentlik alohida, plazmida bilan kodlanadigan izoleysil-tRNK-sintetaz fermenti bilan bog'liqligi isbotlangan.

Enterobacteriaceae kabi grammanfiy organizmlardan ichki rezistentlik grammanfiy hujayra devorining tashqi membranasi orqali yomon o'tishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Mupirotsin o'zining alohida ta'sir ko'rsatish usuli va o'ziga xos kimyoviy tuzilishi tufayli boshqa klinik mavjud bo'lgan antibiotiklarga hech qanday kesishgan qarshilik ko'rsatmaydi.

Mikrobiologik sezuvchanligi

Orttirilgan rezistentlik tarqalish darajasi ayrim turlari uchun geografik va vaqt jihatdan o'zgarib turishi mumkin, rezistentlik to'g'risidagi mahalliy ma'lumot esa, ayniqsa, og'ir yuqumli kasalliklarni davolashda kerak. Zarur hollarda, mahalliy rezistentlik tarqalish darajasi mupirotsin samaradorligi, hech bo'lmaganda, ayrim yuqumli kasalliklar turlarida shubha uyg'otadigan holatlarda mutaxassis bilan maslahatlashish kerak.

Oddiy moyil turlari
<i>Staphylococcus aureus</i> *
<i>Streptococcus pyogenes</i> *
<i>Streptococcus</i> spp. (β -gemolitik, shuningdek <i>S. pyogenes</i> dan farqli)
Orttirilgan rezistentlik muammoga aylanishi mumkin bo'lgan toifa
<i>Staphylococcus</i> spp., koagulaza-negativ
Ajralmas rezistent mikroorganizmlar
<i>Corynebacterium</i> spp.

Micrococcus spp.

* Klinik tadqiqotlarda faollik qoniqlik sifatida baholangan.

Farmakokinetikasi

Baktopik surtmasi maxalliy qo'llangandan so'ng mupirotsin tizimli ravishda juda sust so'riladi, so'rilgan miqdori esa mikroorganizmlarga nisbatan nafaol metabolit, moniat kislotasigacha metabolitga uchraydi. Mupirotsinning chuqur epidermal va dermal qatlamlarga kirishi jarohatlangan terida va okklyuzion bog'lamlar ostida kuchayadi.

Keksa yoshdagi patsientlar

O'rtacha yoki og'ir buyrak etishmovchiligi alomatlar mavjud bo'lgan holatlardan tashqari hech qanday cheklanishlar yo'q.

Qo'llanilishi

Baktopik preparati aksariyat teri infeksiyalari qo'zg'atuvchi organizmlarga, aynan esa: *Staphylococcus aureus*, shu jumladan metitsillina chidamli shtammlar, boshqa stafilokokklar, streptokokklarga nisbatan faollik namoyon qiladigan sirtga qo'llanish uchun mo'ljallangan antibakterial dori vositasi hisoblanadi. Dori vositasi *Escherichia coli* va *Haemophilus influenzae* kabi grammanfiy organizmlarga qarshi faollikni ham namoyon qiladi. Baktopik surtmasi impetigo, follikulit, furunkulyoz kabi infeksiyalarida qo'llanadi.

Qo'llash usuli va dozalari

Dozalash

Kattalar (shu jumladan keksa yoshdagi patsientlar/jigar kasalliklari bo'lgan patsientlar) va bolalar:

Preparat kuniga ikki yoki uch marta davolash natijasiga qarab 10 kungacha vaqt davomida qo'llaniladi.

Buyrak funksiyasi buzilishi bo'lgan patsientlar: "Maxsus ko'rsatmalar" bo'limiga qarang.

Qo'llash usuli

Sirtga qo'llanilishi uchun mo'ljallangan surtma. Baktopik surtmasi oz miqdorda shikastlangan sohaga surtish kerak. Davolanilgan sohani bog'ich bilan yopish mumkin.

Davolashdan so'ng qolgan har qanday miqdordagi surtmani tashlab yuborish kerak.

Boshqa dori vositalari bilan aralashtirmaslik kerak, chunki u antibakterial faollik pasayishiga va surtmada mupirotsin barqarorligini potensial kamayishiga olib kelish xavfi mavjud.

Bolalar: Baktopik surtmasini 2 oylik va undan katta yoshdagi bolalarda qo'llash mumkin.

Nojo'ya ta'sirlari

Quyida qayd etilgan nojo'ya reaksiyalarning uchrash tezligi va tizim-a'zo sinfiga muvofiq ko'rsatilgan. Uchrash tezligi bo'yicha guruhlar quyidagi holatga muvofiq belgilanadi: juda tez-tez ($\geq 1/10$), tez-tez ($\geq 1/100$, $< 1/10$), tez-tez emas ($\geq 1/1000$, $< 1/100$), kam hollarda ($\geq 1/10000$, $< 1/1000$), juda kam hollarda ($< 1/10000$), shu jumladan ayrim xabarlar.

Tez-tez uchraydigan va tez-tez uchramaydigan nojo'ya reaksiyalar 12 ta klinik tadqiqotni o'z ichiga olgan 1573 nafar davolanayotgan patsientlar ishtirokida o'tkazilgan klinik tekshiruvlar xavfsizlik ko'rsatkichlarini jamlash orqali aniqlangan. "Juda kam hollarda" toifasi dastlab postmarketing tadqiqotlari ma'lumotlari bo'yicha aniqlangan nojo'ya reaksiyalarni qamrab oladi va amaldagi takrorlanish tezligidan ko'ra ko'proq murojaatlar sonini aks ettiradi.

Immun tizim tomonidan buzilishlar:

Juda kam hollarda: Baktopik surtmasini qo'llanganda tizimli allergik reaksiyalar, shu jumladan anafilaksiya, tarqalgan toshma, eshakemi va Kvinke shishi to'g'risida xabar berilgan.

Teri va teri osti to'qimalar tomonidan buzilishlar:

Tez-tez: surtilgan joyda achishish hissi.

Tez-tez emas: dori vositasi surtilgan sohada qichishish, qizarish, achishish va terini qurib qolishi. Mupirotsin yoki surtmaning asosiga teri sensibilizatsiya reaksiyalari.

Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar

Faol komponentga yoki boshqa biror-bir yordamchi moddaga yuqori sezuvchanlikda qo'llash mumkin emas.

Baktopik surtmasi tarkibi oftalmologik yoki intranazal qo'llanish uchun mos kelmaydi.

Dorilarning o'zaro ta'siri

Boshqa dori vositalari bilan o'zaro ta'siri aniqlanmagan.

Maxsus ko'rsatmalar

Baktopik surtmasidan foydalanishda allergik reaksiyalar yoki surtilgan joyda kuchli mahalliy yallig'lanish ta'sirlari paydo bo'lishi mumkin, bunday holatlarda davolashni to'xtatish, dori vositasini yaxshilab yuvib tashlash va davolash bo'yicha kerakli choralar ko'rilishi kerak.

Boshqa antibakterial preparatlar qo'llanganida bo'lgani kabi surtmaning uzoq vaqt qo'llash sezgir bo'lmagan organizmlar haddan tashqari ko'payishiga sabab bo'lishi mumkin.

Antibiotiklar bilan davolashda soxta-membranoz kolit paydo bo'lishi to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lib, ushbu kasallik o'rtacha darajadan hayot uchun xavfli darajagacha bo'lishi mumkin. Shu sababli, ayniqsa, antibiotikdan foydalanish vaqtida va foydalanilgandan so'ng diareya kuzatilgan patsientlarga o'z vaqtida tashxis qo'yish muhimligini qayd etish kerak. Ushbu samaralar mupirotsin sirtga qo'llanganda, uzoq davomli diareya yoki patsientlar qornida sanchiq paydo bo'lish ehtimoli kamroq, bunday hollarda davolashni darhol to'xtatish va patsientni kuzatishni davom ettirish kerak.

Buyrak funksiyasini buzilishi

Polietilenglikol ochiq jarohatlarda va shikastlangan teridan absorbsiyalanishi va buyrak orqali ajralib chiqishi mumkin. Tarkibida polietilenglikol mavjud boshqa surtmalardan foydalanilganda, agar polietilenglikolning yuqori miqdorda absorbsiyasi ehtimoli bo'lsa, ayniqsa, o'rtacha darajadan og'ir darajagacha buyrak funksiyasi buzilishi mavjud bo'lsa, mupirotsin surtmasini qo'llamaslik kerak.

Baktopik surtmasi quyidagi holatlarda to'g'ri kelmaydi:

- oftalmologik qo'llanishda;
- intranazal qo'llanishda;
- kateter bilan birga foydalanishda va
- markaziy venoz kateteri sohasida.

Ko'zga tushishiga yo'l qo'ymang. Ko'zga tushgan holatda, surtma qoldiqlari to'liq bartaraf qilingungacha suv bilan yaxshilab yuvib tashlang.

Homiladorlik va laktatsiya davrida qo'llanilishi

Homiladorlik

Mupirotsinning reproduktiv tizimga ta'siri yuzasidan hayvonlarda o'tkazilgan tadqiqotlar homilaga salbiy ta'sirni tasdiqlamagan. Mazkur dori vositasining homiladorlik vaqtida ta'siri to'g'risida klinik dalillar yo'qligi tufayli Baktopik surtmani homiladorlik vaqtida kutilgan foyda, davolashning ehtimoliy xavfdan yuqori bo'lgan holatlarda qo'llash kerak.

Laktatsiya

Mupirotsinning ona sutiga kirishi to'g'risida ma'lumotlar yo'q. Emizuvchi onalar ko'krak so'rg'ichlari yorilishini davolashda emizishdan oldin yaxshilab yuvib tashlanishi kerak.

Fertillik

Mupirotsinning odam fertilligiga ta'siri to'g'risida ma'lumotlar mavjud emas. Kalamushlarda o'tkazilgan tadqiqotlarda fertillikka ta'sir aniqlanmagan.

Avtotransport vositalarini va boshqa mexanizmlarni boshqarish qobiliyatiga ta'siri

Avtomobilni boshqarish yoki boshqa mexanizmlar bilan ishlash qobiliyatiga ta'siri aniqlanmagan.

Dozani oshirib yuborilishi

Belgilari va simptomlari:

Mupirotsin bilan dozani oshirib yuborish to'g'risida ma'lumotlar kam.

Davolash:

Mupirotsin bilan dozani oshirib yuborish biron-bir spetsifik davolash mavjud emas. Dozani oshirib yuborilgan holatlarda patsientni sinchikov kuzatuv ostida yordamchi vositalar bilan davolash kerak. Keyinchalik kuzatuvlarni klinik ko'rsatkichlarga muvofiq ravishda yoki milliy toksik moddalar markazi (agar bunday markaz mavjud bo'lsa) tavsiyalariga muvofiq o'tkazish kerak.

Chiqarilish shakli

15 gr surtma alyumin tubada. Har bir tuba tibbiyotda qo'llanilishiga doir yo'riqnomasi bilan birga karton o'ramda.

Saqlash sharoitlari

Quruq, yorug'likdan himoyalangan joyda 25°C dan yuqori bo'lmagan haroratda saqlansin.

Bolalar ololmaydigan joyda saqlansin.

Muzlatilmasin.

Yaroqlilik muddati

2 yil.

Preparatni yaroqlilik muddati o'tgach qo'llanilmasin.

Dorixonalardan berish tartibi

Retsept bo'yicha.

Ishlab chiqaruvchi

Kusum Healthcare Pvt. Ltd.

Manzili

SP-289(A), RIICO Industrial Area, Chopanki, Bhiwadi, Dist. Alwar (Rajasthan), Hindiston.

O'zbekiston Respublikasi hududida dori vositalarining sifati bo'yicha e'tirozlar (takliflar)ni qabul qiluvchi tashkilot nomi va manzili:

"BARAKA DORI FARM" MCHJ XK

100022, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Xalqa Yo'li ko'chasi, 91-uy.

Tel.: +99878 1509797; +99893 388-87-82

Faks: +99878 150-97-87

E-mail: pv@kusum.uz

Web-sayt: kusum.uz